

ISSN 2181-7200

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН
ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

ФАРГОНА ПОЛИТЕХНИКА ИНСТИТУТИ

**И Л М И Й – Т Е Х Н И К А
ЖУРНАЛИ**



2024. СПЕЦ. ВЫПУСК № 15

**НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ *ФерПИ***

**SCIENTIFIC -TECHNICAL
JOURNAL of *FerPI***

ФАРГОНА – 2024

ФарПИ ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ ТАХРИРИЯТИ

1997 йилдан бүён нашр этилади.
Йилига 6 марта чоп қилинади.

ЎзР Олий аттестация комиссияси
Раёсатининг 2013 йил 30 декабрдаги
№201/3 қарори билан журнал ОАК нинг
илмий нашрлари рўйхатига киритилган

Бош мухаррир

Ў.Р. САЛОМОВ

Т а х р и р ҳ а й ғ а т и:

Физика-математика фанлари:

1. Вайткус Ю.Ю., академик, ф.-м.ф.д., проф. – Вильнюс, Литва ДУ
 2. Тарасенко С.А., ф.-м.ф.д., проф. – С-Пб. ФТИ, РФА
 3. Мўминов Р.А., академик, ф.-м.ф.д., проф. – Ўз ФА ФТИ
 4. Сиддиков Б.М., Prof. of Mathem.
 5. Нуритдинов И., ф.-м.ф.д., проф.
 6. Юлдашев Н.Х., ф.-м.ф.д., проф.
- Ferris State University, USA
– Ўз ФА ЯФИ
– Фар ПИ

Механика:

1. Алиматов Б.А., т.ф.д., проф. – Белгород ДТУ, Россия
2. Сиваченко Л.А., академик, т.ф.д., проф. – Бел.-Рос. Университет, Белорусия
3. Тожиев Р.Ж., т.ф.д., проф. – Фар ПИ
4. Тўхтақўзиев А., т.ф.д., проф. – Ўз ФА МЭИ
5. Файзиматов Ш.Н., т.ф.д., проф. – Фар ПИ
6. Валиев Г.Н., т.ф.д., проф. – Фар ПИ

Курилии:

1. Аббасов Ё.С., т.ф.д. – Фар ПИ
2. Акромов Х.А., т.ф.д., проф. – Тош АКИ
3. Одилхажаев А.Э., т.ф.д., проф. – Тош ТИТМИ
4. Рazzаков С.Ж., т.ф.д., проф. – НамМКИ
5. Шинкова Н.Б. т.ф.д.проф. – Москва Арх. Инст., Россия

Энергетика, электротехника, электрон

қурилмалар ва ахборот технологиялар

1. Арипов Н.М., т.ф.д., проф. – Тошкент ТИТМИ
2. Хайдардинов Б.Э., т.ф.д., проф. – Карши ДУ
3. Касымахунова А.М., т.ф.д., проф. – Фар ПИ
4. Расулов А.М., т.ф.д. – ТАТУ ФФ
5. Эргашев С.Ф., т.ф.д. – Фар ПИ

Кимёвий технология ва экология

1. Салиханова Д.С., т.ф.д. проф. – Ўз ФА УНКИ
2. Ибрагимов А.А., к.ф.д., проф. – Фар ДУ
3. Ибрагимов О.О., к.х.ф.д. проф. – Фар ПИ
4. Омонов Т.С., ф.-м.ф.д., проф. – Альберта Университети, Эдмонтон, Канада.
5. Хамдамова Ш.Ш., т.ф.д. – Фар ПИ
6. Хамроулев З.А., т.ф.д. – Фар ПИ

Ижтимоий-иктисодий фанлар

1. Ертаев К.Е., и.ф.д, проф. – Тараз ДУ, Козогистон
2. Икрамов М.А., и.ф.д., проф. – Тош ИУ
3. Искандарова Ш.М., фил.ф.д., проф. – Фар ДУ
4. Исманов И.Н., и.ф.д., проф. – Фар ПИ
5. Кудбиев Д., и.ф.д., проф. – Фар ПИ

НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ ФерПИ

Издаётся с 1997 года.
Выходит 6 раз в год.

Постановлением Президиума Высшей
аттестационной комиссии РУз №201/3
от 30 декабря 2013 г. журнал включен в
список научных изданий ВАК.

Главный редактор

У.Р. САЛОМОВ

Р е д а к ц и о н на я к о л л е г и я:

Ё.С. Аббасов, Б.А. Алиматов, Х.А. Акромов, Н.М. Арипов, Ю.Ю. Вайткус, Г.Н. Валиев, К.Е. Ертаев, А.А. Ибрагимов,
О.О. Ибрагимов, М.А. Икрамов, Ш.М. Искандарова, И.Н. Исманов, А.М. Касымахунова, Д. Кудбиев, Р.А. Муминов, И. Нуритдинов,
А.Э. Одилхажаев, Т.С. Омонов, А.М. Расулов, С.Ж. Рazzаков, Б. Сиддиков, Л.А. Сиваченко, Д.С. Салиханова, С.А. Тарасенко, Р.Ж.
Тожиев, А.А. Тухтакузиев, Ш.Н. Файзиматов, Б.Э. Хайдардинов, Ш.Ш. Хамдамова, З.А. Хамроулев, Н.Б. Шинкова, С.Ф. Эргашев,
Н.Х. Юлдашев (ответственный редактор)

SCIENTIFIC – TECHNICAL JOURNAL of FerPI

It has been published since 1997.
It is printed 6 times a year.

The decision of Presidium of the Supreme
Attestation Committee of the RUz №201/3
from December, 30th, 2013 Journal is included
in the list of scientific editions of the SAC.

Editor-in-chief

U.R. SALOMOV

E d i t o r i a l b o a r d m e m b e r s:

Yo.S. Abbasov, B.A. Alimatov, X.A. Akromov, N.M. Aripov, Yu.Yu. Vaitkus, G.N. Valiev, K.E. Ertaev, A.A. Ibragimov,
O.O. Ibragimov, M.A. Ikramov, Sh.M. Iskandarova, I.N. Ismanov, A.M. Kasimahunova, D. Kudbiev, A.M. Mamadjanov,
R.A. Muminov, I. Nuritdinov, A.O. Odilxajaev, T.S. Omonov, A.M. Rasulov, S.J. Razzakov, B. Siddikov, L.A. Sivachenko,
D.S. Salikhanova, S.A. Tarasenko, R.J. Tojiev, A.A. Tuxtakuziev, Sh.N. Fayzimatov, B.E. Hayriddinov, Sh.Sh. Xamdamova,
Z.A. Xamroqulov, N.B. Shinkova, S.F. Ergashev, N.Kh.Yuldashev (Executive Editor)

МЕХАНИКА

Тожиев Р.Ж., Садуллаев Х.М., Ортиқалиев Б.С. Техноген хом-ашёлардан тайёрланган оловбардош гиштинг хоссаларига тўлдирувчи моддалар гранулометрик таркибининг таъсири	9
Valiyev G.N. Parallel o'rash mashinalarida yangi o'z-o'zidan markazlanuvchi kalavacho'pdan kalavalarni chuvishda ipning tarangligini tekislash	13
Axmadaliev S.G., Valiyev G.N. Ipakchilikda olinadigan matolar va ularning o'ziga xos xususiyatlari	18
Djamolov R.K., Akramov M.M., Abidova A.R. Chigitni linterlashdan oldin tozalash uskunasini ishlab chiqish	21
Abduraximova M.S., Xaydarova I.I. Trikotaj materiallarining o'riliши va turlari	25

ҚУРИЛИШ

Sattorov Z.M., Otajonov O.A. Tajribaviy statistik modellashtirish usulida kamyoviy qo'shimcha bilan modifikatsiyalangan gazkulbeton komponentlari bog'liqligini matematik modeli	30
Nigmatov U.J. Betonning sifat ko'rsatkichlariga to'ldiruvchilarning strukturaviy xususiyatlarining ta'siri	34
Maxsimov Q., Marupov A. Suvga to'yingan gruntlarda qurilish va rekonstruksiya ishlarini tashkil qilish	39
Sattorov Z.M., Otajonov O.A. Kamyoviy qo'shimcha qo'shilgan gazkulbetonning texnik-iqtisodiy samaradorligi	43
Abdurahmonov A.A., Muminova D., Abdurahmonova D. Temirbeton karkas tizimli 7 qavat turar joy binosining seysmik kuchlar ta'siriga hisoblash va ularni solishtirma tahlili	49
Turdikulov X.X., Alisherov Sh.M. Bino va inshootlarda cho'kishni geodezik kuzatish aniqligi. Cho'kishni bashorat qilish	52
Murodilov X.T. Klaster faoliyatini monitoring qilish uchun xaritalar yaratishda iqtisodiy tahlildan foydalanish	56
Матчонова Н.Н., Шодмонкулов А.М., Раҳимов Ф.Ҳ., Ибрагимов А.О. Махаллий базалът пилик (ровинг)дан функционал маҳсулотлар олиш тадқиқи	62
Abdullayev U.M. Sanoat chiqindilari asosida ko'pikbetonning tarkibi va hususiyatlari	66
Abduraxmonov S.N., Xakimova K.P., Jalolova M.M. Raqamli demografik kartalarni GAT asosida yaratish texnologiyasini ishlab chiqish	70
Sattorov Z.M., Mirzayev B.Q., Mamatov V.Sh. Ko'pikfosfogips blokning fizik va fizik-kamyoviy tadqiqot usullari	75

**ЭНЕРГЕТИКА, ЭЛЕКТРОТЕХНИКА, ЭЛЕКТРОН ҚУРИЛМАЛАР ВА АҲБОРОТ
ТЕХНОЛОГИЯЛАР**

Yusupbekov N.R., Gulyamov Sh.M., Kabulov N.A. Moyli urug'larni quritish jarayonini neyron tarmoqli modeli	83
Kadirova SH.A., Mo'minov X.D., Qosimov D.D. Sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullarini tahlil qilish	91
Xayitov A.M., Sobirov M.M. Meteorologiya stansiyalarining quyosh panellarida quvvatni optimallashtirish Usmonov Sh.Y., Kuchkarova D.T., Soliyev B.G., Karimov N.U. Avtonom suv filtrlarini ishlab chiqish	95
Султонов Р.А. Носозликларни аниқлаш алгоритмини ишлаб чиқиш асосида электр юритма ишончлилигини ошириш	103
Усмонов Ш.Ю. Тўқув дастгоҳлари электр юритмаларининг эксплуатацион ишончлилигини ошириш Alijonov U.X., Yusupaliyev J.V. «Quvur ichida quvur» issiqlik almashtirgichlar ishini takomillashtirish ..	111
Qobilov M.X. 6-10/0,4 kV kuchlanishli kuch transformatorlarida kuchlanishni rostlashning mavjud usullarini tahlil qilish	114
Mamadaliyev M., Mirzaliyev B.B. AFN-element yordamida elektrostatik maydonlarni olish uchun qurilma Mirzaliyev B.B., Karimov N.U. Trigeneratsiya issiqlik elektr stansiyalarida bug' turbinasi quvvatining assimilyatsiya sovutish mashinasining ishlash rejimiga bog'liqligini hisoblash va tahlil qilish	119
Zulunov R.M., Xayitov A.M. PVLIB dasturiy moduli yordamida elektrik stansiyalarining xususiyatlarini hisoblash	126
Abdullayev A. Ikki o'lchamli differential tenglama uchun chegaraviy masalalarni yechishni parallel hisoblash	131
Abdullayev A. Ikki o'lchamli differential tenglama uchun chegaraviy masalalarni yechishni parallel hisoblash	133
Abdullayev A. Ikki o'lchamli differential tenglama uchun chegaraviy masalalarni yechishni parallel hisoblash	138

КИМЁВИЙ ТЕХНОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ

Urazkeldiyev A.B., Erkinov A.J., Raxmonkulova S.Z. G'o'zani tomchilatib sug'orishda dalaning tuproq unumdorligini oshirish va maqbul sug'orish elementlarini takomillashtirish	145
--	-----

Azamjonov B.I., Yigitaliyev D.T. Oqsil va uning tirik organizmlar uchun ahamiyati	149
Jo‘rayeva M.F., Yigitaliyev D.T. Lavlagi tarkibidagi rang beruvchi moddalar miqdorini aniqlash	153
ҚИСҚА ХАБАРЛАР	
Yo‘ldoshev N.H., Xoshimjonov B., Yo‘ldosheva M.Yu. Kadmiy xlorid bilan faollashganda yupqa CdSe plynokalarida donalarning evolyutsiyasi: fazaviy o‘tish	157
Yo‘ldashev N.X., Esaxonova S.G., Yo‘ldasheva M.Yu. CdTe fotovoltaik plynokalarining spektral xususiyatlariga mexanik ta’siri	159
Yo‘ldoshev N.H., Abdullaev A.A., Ahatjonov I.I. (Bi,Sb) ₂ Te ₃ plynokalarining o‘zgaruvchan belgisi bilan bir tomonlama siklik deformatsiyalari ostidagi tensorezistiv xossalari	161
Maxmudova G.O., Muxsinova N.N. PD ta’minalgichni takomillashtirish orqali jarayonni avtomatlashtirish Mahmudova F.U., Orazimbetova G.J., Mahmudov I.R. Induksion pechlarning qoplama chiqindilarining kimyoviy-mineralogik xususiyatlari	164
Abduraxmonov S.N., Xakimova K.R., Berdaliyeva Yu. Farg`ona viloyati aholi bandligi holatini atlasli kartalashtirishning optimallashtirish asoslari	166
Quziboyev Sh.Sh., Vaxobov A.A. Gazogipsbetonning mustahkamligini aniqlash uchun to‘g‘ri tarkiblarni tanlash	169
Djamolov R.K., Akramov M.M., Abidova A.R. Urug‘lik chigitni fraksiyalarga ajratish, tozalash uskunasini tahlil qilish	172
Djamolov R.K., Akramov M.M., Abidova A.R. Chigitni linterlashdan oldin tozalashda qo‘llaniladigan USM-A uskunasini tahlil qilish	174
Nematov X.M., Luqmonjonov A.B. Chorrahaldarda yuzaga keladigan baxtsiz hodisalar va tirbandlikni GPS tizimi orqali aniqlash	176
Sharibayev N.Y., Kayumov A.M. Tasvirlarni tahlil qilish asosida trikotaj matolarning xususiyatlarini baholash	178
Raxmonov T.I. Maqsadga muvofiqlik va ehtiyoja javob berish tamoili asosida yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish	182
Ruzimatova B. S., Xomidov S.R. Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kreativlik fikrlashlarini rivojlantirish	186
Raximjonov J.S., Abdullayev Sh.Sh. Yadro yonilg‘isining yonishi natijasida hosil bo‘ladigan radioaktiv chiqindi	189
Ro‘zimatova B.S. Fizika darslarini tashkil etishda interfaol usullar samaradorlikning muhim omili hisoblanadi	191
Raxmonov T.I. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning ilmiy-asoslanganlik, tizimlilik va uyg‘unlashganlik tamoillari	193
Raximjonov J.S. Matematik fantom va FLUKA dasturiy paketi yordamida nurlanish dozalarini hisoblash	195
Raxmanov T.I. Kelajakdagि muqobil energiya manbalarining muammolari va echimlari	198
Ro‘zimatova B.S. Moslashuvchanlik va mobillik kabi tamoyillari asosida yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish	201
Axmadjonov M.F. Tibbiyot elektronikasi fanini o‘qitishda integratsion ta’lim texnologiyari	205
Ruzimatova B.S. Maktablarda fizika kurslarini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar	207
Raxmonov T.I. Refleksiv tahlil va uzlusizlik va izchillik tamoillari asosida yangi pedagogik texnologiyalarda amaliyotga joriy etish	210
Ro‘zimatova B.S. Ta’limda raqamli texnologiyalar	212
Yigitaliyev D.T., Azamjonov B.I. Steril o‘sintalar o‘stirish	215
Kuchqorova M.Y., Oripova M.M. Xorijiy tillarni o‘qitishning zamонавији usullari	217
Yigitaliyev D.T., To‘xtasinov D.I. Saryog‘ sifatining organoleptic ko‘rsatkichlari	220
Jo‘rayeva M.F., Yigitaliyev D.T. Tugunak bakteriyalarni sof kulturasini ajratish va ular asosida preparat tayyorlash	223
Bazarov A.A. Farg‘ona xududidagiga kirib keluvchi Isfayram va Shoximardon daryo havzalari yer usti suvlarini yer osti suvlarini bilan bog‘liqligi hamda bu suvlarda simobni ortib borish dinamikasi	226
Bazarov A.A. Buxoro xududi neft va gaz konlari ustidagi atmosfera havosida simobni tarqalish qonuniyatlarini va sabablari	230
Муаллифлар дикқатига !	232
	236

**RAQAMLI DEMOGRAFIK KARTALARINI GAT ASOSIDA YARATISH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

S.N. Abduraxmonov¹, K.P. Xakimova², M.M. Jalolova³

¹ “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti,

²Farg‘ona politexnika instituti

³Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali

E-mail: k.xakimova@ferpi.uz (ORCID: 0000-0001-9683-738X)
[\(Qabul qilindi 19.06.2024 y.\)](#)

Annotatsiya: GAT texnologiyalarining aholi kartografiyasi sohasida qo‘llanilishi natijasida bir qancha yengilliklarga erishish haqida nazariy asoslangan va ish hajmining keskin o‘zgarishiga hamda bajarilayotgan ishlar natijasidagi maxsulotlar dizaynnini yaxshilanishi va aniqlik darajasi oshishiga olib keladi. Ushbu maqolada, GAT texnologiyalarida kartalarni tuzishda ma’lumotlar bazasini yaratish, aerokosmik va boshqa manbaalardan olingan ma’lumotlar orqali joylardagi o‘zgarishlarni operativ aniqlash, monitoringini olib borish, GAT texnologiyalari dasturlaridan foydalangan holda, demografik raqamli ma’lumotlar bazasini yaratish va ular asosida seriyali kartalar mazmunini boyitish hamda GAT texnologiyalaridan foydalanib aholi kartalarini yaratish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratiladi.

Tayanch so‘zlar: kartografiya, GAT texnologiyalari, mintaqaviy tahlil, kartografik maxsulot, demografiya, aholi, kartografik manbaa, plan.

Аннотация: Достижение ряда преимуществ в результате применения ГИС-технологий в области картографии населения приведет к резкому изменению теоретической и рабочей нагрузки, а также улучшенному дизайну продукта и повышению точности в результате выполненной работы. В этой статье основное внимание уделяется созданию базы данных для картографирования в технологии ГИС, быстрому обнаружению и мониторингу изменений на земле с помощью данных из аэрокосмических и других источников, а также разработке технологии создания карт населения с использованием технологии ГИС.

Ключевые слова: картография, ГИС-технологии, региональный анализ, картографический продукт, демография, население, картографический источник, план.

Abstract: Achieving a number of benefits as a result of the application of GIS technologies in the field of population cartography will lead to a sharp change in the theoretical and workload, as well as improved product design and increased accuracy as a result of the work performed. This article focuses on the creation of a database for mapping in GIS technology, the rapid detection and monitoring of changes in the ground through data from aerospace and other sources, as well as the development of technology for creating population maps using GIS technology.

Key words: cartography, GIS technologies, regional analysis, cartographic product, demography, population, cartographic source, plan.

KIRISH. So‘nggi yillarda barcha fan va sohalarda ulkan izlanishlar va tadqiqotlar olib borilib, misli ko‘rilmagan natijalarga erishilmoqda. Xususan, kartografiya va geoinformatikaning fan, texnika hamda ishlab chiqarish sohalari sifatida rivojlanib borayotganligi hech bir soha mutaxassisiga sir emas. Fanga geografik axborot tizimlari (GAT) ning kirib kelishi sohani yanada tez suratlar bilan rivojlanishiga olib keldi [1].

Mamlakatimizning turli mintaqalarida demografik jarayonlarni zamонавиу geoaxborot texnologiyalari va kartografik metodlar asosida tadqiq qilish, kartalarini tuzishda demografik ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, ma’lumotlar bazasini yaratish, raqamli ko‘rinishga aylantirish,

tahlil qilish, qayta ishlash, ro‘yxatga olish, baholash, avtomatik prognoz qilish, fazoviy ma’lumotlar asosida modellashtirish, integratsiyalash va vizuallashtirish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli geoaxborot texnologiyalari va kartografik metodlar asosida demografik jarayonlarni o‘rganish zaruriyatni paydo bo‘ldi.

Hududlarda demografik jarayonlarni tartibga solishga yordam beradigan elektron kartalarni yaratish va unda innovasion yondashuvlarga asoslangan holda ilmiy tadqiqot olib borishni taqazo etadi.

Asosiy qism. Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kartografik, aerokosmik, statistik, GAT texnologiyalari ArcGis, QGIS, Mapinfo dasturlari, anketa so‘rovi, hududiy tahlil, geolokatsiya usullaridan foydalanilgan.

Demografik jarayonlarni kartalashtirishning zamonaviy metodlari va texnologiyalari, geoinformasion kartaga olish, fazoviy va kartografik modellashtirish va vizuallashtirish ilmiy jihatdan asoslangan, GAT texnologiyalari dasturlari asosida demografik ma’lumotlar bazasi yaratilgan va ular asosida kartalar seriyasi ishlab chiqilgan, demografik jarayonlarni tadqiq qilishda kartografik metodning afzalligi asoslangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Mavzuli karta va planlarni yaratish, ularni qayta ishlash, ma’lumotlar bazalarini shakllantirish, integratsiyalash hamda vizuallashtirish kabi ishlar GAT texnologiyasining asosiy maqsadli vazifalaridan biri deb qabul qilindi.

Bugungi kunda kartografiya sohasida yangi geoinformasion kartografiyaning uslubiy va texnologik aspektlarining faolligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin [2].

Kartalarni tuzishda analogli usullar o‘rniga GAT dasturiy ta’minoti asosida ma’lumotlar bazasini va elektron kartalarni yaratish metodalarini geoinformasion kartografiya va geografik axborot tizimlarining ahamiyati katta [3].

GAT texnologiyalariga - tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan barcha hodisalari bo‘yicha geodezik hamda kartografik axborotlarni to‘plash, ularni qayta ishlash va tizimli tahlil qilish, ma’lumotlarni yangilash, natijalarni saqlash va zarur vaqtida qayta ishlashni ta’minlovchi avtomatlashtirilgan dasturlar jamlamasи deb ta’rif berish maqsadga muvofikdir [2].

Shu yerda yana bir narsani ta’kitlab o‘tish lozimki GAT dasturlarining yana bir katta imkoniyati shundaki yaratilayotgan karta uchun kartografik asos tayyorlab olinsa statistik ma’lumotlar yordamida barcha mavzudagi kartalarni tez va sifatli tayyorlashga imkon yaratadi. Bunda albatta yaratiladigan karta masshtabidan yirik masshtabdagi kartografik asos tayyorlash talab etiladi.


Aholi kartalarini aks ettirishda GAT texnologiyalari dasturlarining ommalashuvi, aholi bilan bog‘liq qator amaliy vazifalar va tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilgan dasturiy ta’mintlardir. Demografik jarayonlarni kartalashtirishda dastlab barcha statistik va boshqa ma’lumotlarni to‘plab GAT dasturlarida ma’lumotlar bazasini shakllantirish zarur.

GIS texnologiyalari aholini kartaga olishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunda har bir demografik ma’lumotlar yo‘nalishi bo‘yicha alohida - alohida qatlamlarda ifodalanadi. GIS dasturlarida tuzilgan demografik raqamli karta qatlamlari asosida aks ettirilgan barcha ma’lumotlar tahlil qilinib, kelajakda prognoz kartalarini avtomatik ravishda tuzish imkoniyatini beradi [4]. Quyida, demografik kartalarni yaratishda GIS texnologiyalarining afzallikkleri modellari keltirilgan (1-rasm). Unda GIS texnologiyalarining afzallikkleri, ushbu modellarda - geoxborot tizimlari va texnologiyalari oilasiga mansub dasturiy ta’mintlar asosida tuzilgan mavzuli kartalarning o‘quvchanligi, tushunarlligi, sifati va shu kabi afzallikkleri zamon talablariga javob berishini ta’minalashga katta e’tibor qaratilganligi bilan belgilanadi.

Janubiy mintqa aholisi to‘g‘risida aniq ma’lumotlar olishda viloyat, tuman, qishloq fuqarolar yig‘inlaridan olingan ma’lumotlar asosida tuzilgan hududiy statistika boshqarmalari materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Aholi kartalarini tuzishda hududning relyefiga, gidrografiyasiga, transport tizimlariga va chegaralarga katta e’tibor berish lozim. O‘zbekistonda


СТРОИТЕЛЬСТВО

tuzilgan aholi kartalari asosan kompleks va o'quv atlaslardagi kartalar bo'lib, ular mayda masshtabli [7] bo'lgani sababli aniqlik darajasi yetarli deb bo'lmaydi.



1-rasm. Demografik jarayonlar kartalarni yaratishda GIS dasturlarining afzalliliklari.

Mintaqadagi demografik jarayonlarning joriy holatini tavsiflaydigan kartalarni tuzishda zaruriy barcha imkoniyatlarga ega dasturiy ta'minot tanlanadi. Tanlangan dasturiy ta'minot asosida aniqligi yuqori bo'lgan karta yaratishda ma'lumotlar bazasini aniq ishonchli manbalar bilan to'ldirish talab etiladi.



2-rasm ArcGIS dasturlarda ma'lumotlar bazasini boshqarish.

ArcGIS va MapInfo dasturlaridan kartografik ma'lumotlarni yaratish, tahrir qilish, yangilash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun keng foydalanildi [8]. Umuman

olganda qabul qilingan GAT terminologiyasi nuqtai nazaridan bu dasturlarda ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi ham mavjud (2-rasm).

Tadqiqotlar davomida ma'lum bo'ladiki, GIS texnologiyasi negizida, demografik jarayonlarni aks ettiruvchi yangi avlod kartalarini yaratishning yangi metodikasini ishlab chiqish zarurligi ko'zga tashlanadi. Shulardan kelib chiqib quyidagi demografik raqamli kartalarni yaratish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Aholi kartalarini yaratish texnologiyasini joriy etish va amalga oshirishdagi ishlar ketma - ketligi quyidagilardan iborat:

1. Hududning demografik holatini o'rghanish. Bunda, raqamli ma'lumotlar to'planib mualliflik orginallaridan, fond kartalari hamda masofadan zondlash (MZ) materiallarini jamlagan holda ma'lumotlar bazalari shakllantiriladi. Bu bosqichda ishlar ko'lami tanlangan hududning demografik holatini geografik jihatdan o'rghanish jarayonini ham qamrab oladi.

2. Demografik ob'yektlar tasnifi va tahlili. Ushbu jarayonda to'plangan mavjud jadvallar (atributlar) hamda matnli ma'lumotlar kompyuter xotirasiga kiritiladi.

3. Shartli belgilar tizimini ishlab chiqish. Bunda, demografik jarayonlarni tavsiflaydigan shartli belgilar bibliotekasi yaratiladi, shuningdek standart bo'yicha yaratilgan shartli belgilar bibliotekasi asosida joylardagi voqeа va hodisalalarni izohlovchi legendalar tuziladi.


4. Kartaning mavzuli qatlamlari bilan ishslash. Bunda, mavzuli qatlamlar tanlangan ketma - ketlikda to'g'ri joylashtiriladi va kartografik tasvirni hosil qilish va ularni taxrir qilish ishlari amalga oshiriladi.

5. Shunday qilib, yuqoridagi bosqichlar muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng kartaning komponovkasini (tasvirlanadigan hududni chegarasi, uni karta ramkalariga nisbatan joylashtirish, kartaning nomini, masshtabini, legendasini, har xil raqamli va matnli ma'lumotlarni, jadvallarni, grafiklarni, qo'shimcha kesma kartalarni va boshqa shunga o'xshash ma'lumotlarni maqsadga muvofiq joylashtirish) ishlab chiqilib uni nashrga tayyorlash va nashr qilish ishlari bajariladi.

Yuqorida ishlab chiqilgan demografik raqamli kartalarni yaratish texnologiyasi metodikasi asosida turli yo'naliishlar bo'yicha aholi raqamli kartalarini yaratish imkoniyati tug'iladi. GAT dasturilarida demografik jarayonlarni aks ettiruvchi kartalarini yaratishda ma'lumotlar raqamli ko'rinishga keltirilib, kompyuter ekranida namoyon qilinadi, ya'ni murakkab tahririy tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Kartalarni raqamlash maxsus moslamalar yordamida kartografik materiallarni skanerlash usuli bilan, keyingi bosqichda esa rastrli ma'lumotlarni vektorga aylantirish yo'li bilan amalga oshiriladi [9].

Kartalarni tuzishda bir tizimga tayangan holda ish olib borilishidan kelib chiqib, ishlab chiqilgan raqamli kartalarni yaratish texnologiyasi elektron raqamli aholi kartalarini sifatini oshiradi. Maxsus GAT dasturlari va kartografik tadqiqot usullaridan foydalanib tuzilganligi kartalardagi axborotlarni tahlil qilish, mavzuli kartalarni yaratish aniqligi va tezligini yaxshilash imkonini berdi.

Tadqiqot ishida oldimizga qo'ygan masalalarni hal etishda keltirilgan talablarga mos keladigan GAT oilasiga mansub ArcGis dasturiy ta'minotdan faydalanildi. Yuqorida ishlab chiqilgan raqamli demografik kartalarni yaratish texnologiyasi negizida mavzuli kartalarni tuzish ishlari olib borildi. Markaziy ma'lumotlar bazasiga (server) to'plangan statistik ma'lumotlar joylashtirib o'zaro bog'landi. So'ngra kartografik tasvirlash usullaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Qarindoshlar o'rtasida qayd qilingan nikohlar kartasi tuzildi (3-rasm).



3-rasm. Qarindoshlar o'rtaida qayd qilingan nikohlar kartasi.

XULOSA. GAT texnologiyasi va kartalar bir - birlarini doimiy ravishda to'ldirib boradi va buni karta va planlarni yaratish, ularni qayta ishlash va ma'lumotlarni integratsiyalash ishlarida ko'ramiz. Mavzuli karta va planlarni yaratish, ularni qayta ishlash, ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, integratsiyalash hamda vizuallashtirish kabi ishlar GAT texnologiyasining asosiy maqsadli vazifalaridan biri deb qabul qilindi. Demografik jarayonlarni GAT dasturlari asosida kartalarda aks ettirish aholi bilan bog'liq qator amaliy vazifalar va tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilganligida kelib chiqib, janubiy mintaqadagi demografik vaziyatlarni tahlil qilish hamda ularning elektron raqamli kartalarini yaratishda tizimlashgan texnologiya ishlab chiqildi.

Adabiyotlar

- [1]. Abduraxmonov S.N., Inamov A.N. "Mintaqaviy demografik jarayonlarni kartografik usullar bilan vizuallashtirishda innovatsion texnikani qo'llash va ularni integratsiyalash" // Monografiya Toshkent., 2018. 107 b.
- [2]. Abduraxmonov S. Geoinformatik tizimlar va texnologiyalar (GAT) va Integratsiyalashgan demografik jarayonda GPS aksesuarlaridan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar // Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqotlar va nashrlar jurnali (IJMRAP) ISSN (Onlayn): 2581-6187. Hindiston, 2019. (ISI ta'sir koeffitsienti- 0.618).
- [3]. Qayumov. A.A., Yoqubov U.Sh., Rayimjonov Z.H. Aholi geografiyasi va demografiyasi asoslari. Toshkent: 2018. S. 26–94.
- [4]. Mirzaliev T., Musaev I., Safarov E.Yu. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya. Toshkent: Yangi asr avlod, 2009. 165 b. (o'zbek tilida).
- [5]. Musaev I., Muxtarov O., Ergashov M. Geoinformatsion tizimlar va texnologiyalar. Toshkent: TIIAME, 2015. 59 b.
- [6]. Oymatov R.K. Kartografik dizayn. Toshkent: TIIAME, 2017. 220 b.
- [7]. Sabitova N.I. O'zbekiston milliy atlasidagi relief plastmassa usuliga asoslangan tematik xaritalar. O'zbekiston milliy atlasini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari. Toshkent: TIIAME, 2009. S. 38–40.
- [8]. Safarov E.Y., Prenov Sh.M., Allanazarov O.R., Sayidov A.K., Raxmonov D.N. Kartografiya va geovizuallashtirish. Toshkent: TIIAME, 2015. 123 b.
- [9]. Abduraxmonov S.N., Inamov A.N. Geoma'lumotlar bazasida ob'yektlarini shakllantirish usullarini takomillashtirish//Agro-Ilm.–Toshkent., 2017. 5(49) – son. - B. 76-77.
- [10]. Abduraxmonov S.N. Demografik jarayonlarning shakllanishi va uning qishloq xo'jaligiga ta'sirini GAT texnologiyalari yordamida kartalashtirish//Innovasion texnologiyalar – Qarshi., 2016. №3(23) - B. 37-42.

КРАТКИЕ СООБЩЕНИЯ

FARG`ONA VILOYATI AHOLO BANDLIGI HOLATINI ATLASLI KARTALASHTIRISHNING OPTIMALLASHTIRISH ASOSLARI

S.N. Abduraxmonov¹, K.R. Xakimova², Y. Berdaliyeva²

¹“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, ²Farg`ona politexnika instituti
E-mail: k.xakimova@ferpi.uz (ORCID: 0000-0001-9683-738X)
[\(Qabul qilindi 19.06.2024 y.\)](#)

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Farg`ona viloyati aholi bandligi holatini atlasli kartalashtirishning optimallashtirish asoslari, Aholi bandligi kartalarini tahlil qilish hamda GIS dasturida ekologik atlas kartalarini loyihalash va tuzish metodikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: GIS, aholi, karta, optimallashtirish, modellashtirish.

Аннотация: В статье представлена информация на основе оптимизации атласного картографирования состояния занятости населения Ферганской области, анализа карт занятости населения, а также методологии проектирования и составления экологических атласных карт в программном обеспечении ГИС.

Ключевые слова: ГИС, население, карта, оптимизация, моделирование.

Abstract: This article provides information on the basis of optimization of atlas mapping of population employment status of Fergana region, analysis of population employment maps, and the methodology of designing and compiling ecological atlas maps in GIS software.

Key words: GIS, population, map, optimization, modeling.

KIRISH. Kartalarning mazmunini va o`ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish yo`li bilan ularning biror maqsad uchun nechog`liq yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini aniqlab berish mumkin. Kartani tahlil qilish quyidagi tartib bo`yicha olib boriladi: uning zamonaviyligi, ilmiy jihatdan mukammalligi, mazmunining to`laligi, matematik va geografik asoslar tanlanishining maqsadga muvofiqligi, generalizatsiya jihatdan to`g`ri kelishi, jihozlanish darajasi, ko`rgazmaliligi, ishlatilgan shartli belgilarning mantiqiy bog`lanishi, umumiyligini ko`rsatkichlarning tasvirlanish darajasi va kartadagi tasvirlarning geometrik jihatdan aniqligi e`tiborga olinadi.

Kartalardan foydalanishning ko`lami juda keng. Kartadan hozirgi kunda ilmiytadqiqotlarda, xalq xo`jaligida, loyihalashda, oliv va o`rta maxsus o`quv yurtlarida hamda harbiy ishlarda foydalaniladi. Ayniqsa, tabiiy mavzuli kartalardan foydalanish yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, tuproq kartalari yordamida tuproqning gumusi, kimyoviy tarkibi, eroziyasi, sho`rlanish darajasi, ularni yaxshilash tadbirlari ko`riladi. So`nggi paytlarda tabiiy resurslarni baholash, tabiiy muhitni muhofaza qilish kartalari tuzilib, ulardan xalq xo`jaligida unumli foydalanilmoqda [1].

Aholi bandligi kartalarini tahlil qilish yozma shaklda quyidagi tartibda olib boriladi:

- kartaning nomi (uning nomi, beti, kim tomonidan tuzilganligi), nashr qilingan vaqt va qayerda nashr qilinganligi;
- kimgarga mo`ljallanganligi;
- nashr qilishda ishlatilgan ranglar;
- bosh masshtabi;
- kartografik proyeksiyasi xatoligi va uning tarqalishi (eng kam va eng ko`p tarqalgan maydonlari);

КРАТКИЕ СООБЩЕНИЯ

- mazmunining qanday tasvirlanganligi: suv obyektlari, relyefi (ishlatilgan usuli), o'simligi, tuproqlari, aholi yashaydigan joylari, chegaralari, ijtimoiy-iqtisodiy elementlari, yozilgan shriftlari;
- legendasi va komponovkasi;
- karta to`g`risidagi umumiy xulosa va fikrlar;

ASOSIY QISM. «Kartografik tadqiqot usuli» to`g`risida gap ketganda, deb yozadi prof. A.M.Berlyant, kartada tasvirlangan voqeа va jarayonlarni to`g`ri tushuntirish uchun kartadan foydalanish uslubini bilish zarurligini puxta anglab yetish lozim. Olimning ta`kidlashicha, kartani bilish — kartadagi voqeа va jarayonlar to`g`risida, miqdor va sifat ko`rsatkichlarini, geosistemalar orasidagi o`zaro bog`liqlik va o`zaro munosabatlarni, ularning vaqt o`tishi bilan o`zgarishi natijasida vujudga kelgan va vujudga kelishi mumkin bo`lgan vaziyatlarni tushuna bilish demakdir.

So`nggi yillarda kartografiyada yangi soha — modellashtirish usulidan foydalanilmoqda. Modellashtirish — shunday uslubki, unda o`rganilayotgan obyekt (voqeа va jarayonlar) boshqa bir yordamchi obyekt orqali o`rganilib, uni o`rganish uslubiga to`g`ri kelishi kerak.

Model tadqiqotni osonlashtiradi va soddalashtirib beradi, ko`rgazmali qilishga imkon yaratadi, model yordamida modellashtirilayotgan voqeа va jarayonlar to`g`risida yangi ma`lumotlar olish imkoniyati tug`iladi. Modellashtirish tadqiqotchida yangi fikrlar uyg`otishga yordam beradi va o`z imkoniyatlarini sinab ko`rishga yordamlashadi [2].

Kartografik modellashtirish deganda geografik voqeа va jarayonlardan foydalanish asosida yangi bilim olish va ulardan foydalanish uchun kartografik asarlar yaratish va tahlil qilish natijasida yangilarini yaratish usulini tushunish kerak. Geografik modellarga ma`lum bir joyning matn yordamida tasvirlab yozilishi (yozma modeli), har xil kartalar, aerosuratlar, kosmik suratlar, jadvallar, profillar, diagrammalar, blokdiagrammalar, har xil matematik formulalarini kiritish mumkin. Ba`zan relyeflarning tabiiy ko`rinishi tasviri ham model deb yuritiladi.

Geografiyada ishlatiladigan modellar ichida karta asosiy va an`anaviy model hisoblanadi. Karta ma`lum bir matematik qonunlar asosida tuzuladi, ya`ni Yer shari dumaloq bo`lishiga qaramay, u maxsus usul — proyeksiya asosida modellashtirilib, tekislikka yoyilib, karta sifatida beriladi [5].

Kartalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, voqeа va jarayonlarni kartadan o`qib o`rganish kartografik tadqiqot uslubi deb yuritiladi. Kartalar geografik tadqiqotlarni olib borishda asosiy vosita (qurol) ekan, geograflar kartografik tadqiqot uslubini ham bilishi kerak [3].

Kartografik tadqiqot usulida quyidagi asosiy usullardan foydalaniladi:

1. Kartani o`qib o`rganish;
2. Kartani kartometrik yo`llar bilan tahlil qilish;
3. Grafik usul;
4. Matematik statistik tahlil qilish usuli va boshqalar.

Kartani o`qib tahlil qilish usuli eng ko`p qo`llaniladigan usul bo`lib, kartografik tasvirga asoslanadi, legenda asosida bajariladi.


Kartometrik usulda esa kartada o`lchash yo`llari bilan nuqtalarning koordinatalarini aniqlash, masofalarni hisoblash, balandliklarni, maydonlarni, hajmlarni, burchaklarni va boshqa miqdor, ko`rsatkichlarini hisoblash yo`li bilan tahlil qilinadi [4].

Grafik usulda kartada profil, kesmalar, blokdiagrammalar, har xil diagrammalar va chizmalardan foydalaniladi. Masalan, profil va kesmalar yordamida obyektlarning vertikal strukturasini, blokdiagramma bilan o`lchash (qalinligi, bo`yi va eni) yordamida hajmi aniqlanadi. Natijada, Yer yuzasi bilan geologik struktura orasida bog`liqliknini bilish mumkin [1].

Matematik-statistik tahlil qilish usuli yangi qo`llanilayotgan usul bo`lib, elektron-hisoblash texnikasiga asoslanadi (masalan, yalpi hosil, hosildorlik va hokazolar). Bu usulni

КРАТКИЕ СООБЩЕНИЯ

qo'llashda izoliniya usuli qo'l keladi. Chunki bunda kartadagi har qanday nuqtada «tasvirlangan voqe» qiymatini aniqlasa bo'ladi. Statistik ko'rsatkichlar yordamida bu usul bilan hududlar rayonlashtiriladi (1-rasm).



1-rasm. GIS dasturida ekologik atlas kartalarini loyihalash va tuzish metodikasi.

XULOSA. Tadqiqot ishida oldimizga qo'yan masalalarni hal etishda keltirilgan talablarga mos keladigan GAT oilasiga mansub ArcGis dasturiy ta'minotdan faydalanildi. Yuqorida ishlab chiqilgan raqamli aholi bandligi kartalarni yaratish texnologiyasi negizida mavzuli kartalarni tuzish ishlari olib borildi. Markaziy ma'lumotlar bazasiga (server) to'plangan statistik ma'lumotlar joylashtirib o'zaro bog'landi. So'ngra kartografik tasvirlash usullaridan foydalangan holda Farg`ona viloyati aholi bandligi kartasi hamda migratsiya harakati kartasi tuzildi.

O'zbekiston milliy atlasidagi aholi bandligi kartalarini tahlil qilib o'rganilgandan so'ng Farg`ona viloyati aholi bandligi hamda mehnat migratsiyasi kartalari legendasi ishlab chiqildi hamda optimallashtirildi.

Adabiyotlar

- [1]. Abduraxmonov S.N., Inamov A.N. "Mintaqaviy demografik jarayonlarni kartografik usullar bilan vizuallashtirishda innovatsion texnikani qo'llash va ularni integratsiyalash" // Monografiya Toshkent., 2018. 107 b.

КРАТКИЕ СООБЩЕНИЯ

- [2]. Abduraxmonov S. Geoinformatik tizimlar va texnologiyalar (GAT) va Integratsiyalashgan demografik jarayonda GPS aksessuarlaridan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar // Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqotlar va nashrlar jurnali (IJMRAP) ISSN (Onlayn): 2581 -6187. Hindiston, 2019. (ISI ta'sir koefitsienti- 0.618).
- [3]. Qayumov. A.A., Yoqubov U.Sh., Rayimjonov Z.H. Aholi geografiyasi va demografiyasi asoslari. Toshkent: 2018. S. 26–94.
- [4]. Mirzaliev T., Musaev I., Safarov E.Yu. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 165 b. (o'zbek tilida).
- [5]. Musaev I., Muxtarov O., Ergashov M. Geoinformatsion tizimlar va texnologiyalar. Toshkent: TIIAME, 2015. 59 b.
- [6]. M.R. Bo'rieva, Z.N. Tojieva, S.S. Zokirov. Aholi geografiyasi va demografiya
- [7]. asoslari (o'quv qo'llanma) // T-2020.

UO'K:693.612

GAZOGIPS BETONNING MUSTAHKAMILIGINI ANIQLASH UCHUN TO'G'RI TARKIBLARNI TANLASH

Sh.Sh. Quziboyev, A.A.Vaxobov

Farg'onan politexnika instituti
quziboyevshoirjon@gmail.com, vahobovabobakir@gmail.com
(Qabul qilindi 19.06.2024 y.)

Annotatsiya. Ushbu ishda Marmor va travertin kukunlari bilan modifikatsiyalangan gipsobetonning fizik-mexanik xususiyatlarining oshishi, birinchi navbatda, gipsning qotishidagi geterogen jarayonda marmor va travertinning eruvchan minerallarining kimyoviy ishtirokida yangi fazalar hosil bo'lishi, marmor va travertin kukunlarini zarrachalari bog'lovchining g'ovak bo'shlig'ini to'ldirishi bilan gips toshining yanada mukammal tuzilishda shakllanishini ta'minlashini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: marmor travertin superplastifikator, optimal tarkib, qo'shimchalar

Аннотация. В данной работе отмечено повышение физико-механических свойств гипсбетона, модифицированного мраморными и травертиновыми порошками, прежде всего образование новых фаз при химическом участии растворимых минералов мрамора и травертина в гетерогенном процессе затвердевания гипса. поровое пространство связующего из мрамора и частиц порошка травертина показало, что оно обеспечивает формирование гипсового камня более совершенной структуры за счет его заполнения

Ключевые слова: мрамор, суперпластификатор, травертин, оптимальное содержание, добавки

Annotation. This work noted an increase in the physical and mechanical properties of gypsum concrete modified with marble and travertine powders, primarily the formation of new phases with the chemical participation of soluble minerals of marble and travertine in the heterogeneous process of gypsum hardening. The pore space of the binder made of marble and travertine powder particles showed that it ensures the formation of gypsum stone with a more perfect structure due to its filling.

Key words: marble, superplasticizer travertine, optimal content, additives.

KIRISH

Marmor va travertin kukunlari bilan modifikatsiyalangan gipsobetonning fizik-mexanik xususiyatlarining oshishi, birinchi navbatda, gipsning qotishidagi geterogen jarayonda marmor va travertinning eruvchan minerallarining kimyoviy ishtirokida yangi fazalar hosil bo'lishi, marmor va travertin kukunlarini zarrachalari bog'lovchining g'ovak bo'shlig'ini to'ldirishi bilan gips toshining yanada mukammal tuzilishda shakllanishini ta'minlashini ko'rsatdi degan xulosa chiqarilgan. Tadqiqotlar marmor, travertin kukunlari va SDj-2 plastifikatori bilan

**ФарПИ ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ
ТАҲРИРИЯТИ:**

Масъул муҳаррир
Мусаҳҳих
Мусаҳҳих
Компьютерда саҳифаловчи

Н.Х. Юлдашев
А.Ш. Нигматуллина
Д.Х. Мамажонова
С.Э. Йўлдашева

Таҳририят манзили:
150107. Фарғона шаҳри, Фарғона кўчаси, 86 уй.
Телефон: 241-13-54.
Факс: 241-12-06.
Бизнинг сайт: <http://www.ferpi.uz>
E-mail: jurnalferpi@mail.ru

Ўзбекистон Республикаси Президенти администрацияси ҳузуридаги
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан
Оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилиб,
2020 йил 6 августда № 1081 рақамли гувоҳнома олинди.

Босишига рухсат этилди: 24.06.2024 й.
Бичими: А4. Гарнитура Times New Roman.
Босма табоги: 15,25. Адади 10 нусха. Буюртма № 3.
Баҳоси шартнома асосида.
УП «FARPI ALPHA PRINT» босмахонасида чоп этилди.
Фарғона шаҳар, Фарғона кўчаси 86 -уй.